

CHET TILLARINI O'RGANISH TIZIMINI ZAMONAVIY USUL VA METODLARI

A'zamjon G'oziev
ADU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Odatda xorijiy tillarni o'rganishdan oldin talabalarda o'sha tilga nisbatan katta qiziqish va boshlang'ich bosqichda motivatsiya bo'ladi. Ular xorijiy tilda fikrlarini izhor qilish, tengdoshlar bilan o'sha tilda suhbat qurish va o'sha tilda gaplashuvchi odamlar, mamlakat va madaniyat haqida o'rganishni xohlaydilar bu esa og'zaki nutqni rivojlanishiga kata turtki bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *xorijiy til, talaba, metod, zamonaviy usul, pedagog, malaka, madaniyat, bilim.*

Аннотация: *обычно перед изучением иностранных языков студенты проявляют большой интерес к этому языку и мотивацию на начальном этапе. Они хотят выражать свои мысли на иностранном языке, общаться со сверстниками на этом языке и узнавать о людях, стране и культуре, говорящих на этом языке это будет большим стимулом для развития устной речи.*

Ключевые слова: *иностранный язык, студент, метод, современный метод, педагог, квалификация, культура, знания.*

Annotation: *usually before learning foreign languages, students have great interest in that language and motivation at the initial stage. They want to express their opinions in a foreign language, chat with peers in that language and learn about the people who speak that language, the country and the culture that will motivate kata to develop oral speech.*

Keywords: *foreign language, student, method, modern method, educator, qualification, culture, knowledge.*

Xorijiy tillardan dars beruvchi oliy o'quv yrtlari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹, "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar hamda

¹ Ўзбекистон Республикаси биринчи президентининг 10.12.2012 йилдаги "Чет тилларни ўрганиш тизимини

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi farmoni¹, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi qarori² respublikamizda barcha sohalari uchun jahon standartlariga to‘liq javob beruvchi yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini yanada yuqori bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘ldi.

Talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun yangi so‘zlarni izchil va etarlicha o‘rganib olishlari kerak. Yangi so‘zlarni talabalar o‘rganib yod olishlari uchun pedagoglar foydali tadbirlarni ishlab chiqishlari lozim. Mashg‘ulotlar talabani tabiiy ravishda so‘z va kontekst bilan tanishtirishi va uni qo‘llay olishiga tayyorlashi kerak. Teatrlashtirilgan tomoshalar, turli xil o‘yinlar, ijodiy yozish va jamoaviy o‘qish bunga yaxshi misoldir. Talabalar soni ko‘pligi va dars vaqt cheklanganligi so‘zlarni to‘liq o‘rganishga kafolat bera olmasligi sababli, talabalarni uyda o‘tkazadigan mashg‘ulotlar turlari bilan tanishtirish ham kerak. Lug‘atlar, yon daftarlari, so‘z kartalari kabi manbalardan foydalanish juda samarali bo‘lishi mumkin. So‘zni mashq qilish uchun umumiy ikkita toifaga bo‘linadigan bir nechta faoliyat mavjud:

1. Kontekstga bog‘liq bo‘lmagan faoliyat
2. Kontekstga bog‘liq faoliyat.

Kontekstga bog‘liq bo‘lmagan faoliyat shu paytgacha biz so‘zni o‘rgatish va mashq qilishning foydalari haqida juda ko‘p gapirdik, lekin ba’zi hollarda biz avditoriydan tashqari ishlardan ham foydalanishimiz mumkinligini kam o‘yladik. Ushbu turdagi faoliyatning afzalliklari va foyda tamoni vaqtini tejashdir. Talaba so‘zning gapda ishlatilishi bilan ma’lum darajada tanishib chiqqandan so‘ng, uning shakli va ma’nosini eslash uchun so‘zning jumladan tashqarida ham ishlatilishi og‘zaki nutqning u’sishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda talabalardan mavzu bo‘yicha o‘z so‘z boyliklarini tekshirish yoki so‘zlarni doskaga yozib, o‘qituvchi ularni tezda aniqlab olishlari uchun eslamagan so‘zlarini aniqlashlarini so‘rash mumkin. So‘zni mashq qilish uchun foydali bo‘lgan mashqlar orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin.

Aqliy hujum - Aqliy hujumi mashqlari juda foydalidir, ularning eng muhim foydasi - bu unutilgan materialni esga soladigan faoliyatni xarakteriga ega. Bitta o‘quvchi tomonidan aytilgan so‘z ko‘plab o‘quvchilar tomonidan esga olinishi mumkin.

Yozish - bu eng qadimgi va ommabop sinf mashg‘ulotlaridan biri. Fors tilidagi manbalarda **imlo** deb ham beriladi. Ushbu faoliyatni iloji boricha foydali qilish uchun

янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сон Қарори.

¹ Ўзбекистон Республикаси биринчи президентининг 12.06.2015 йилдаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон Фармони.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.04.2017 йилдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон Қарори.

biz unga o‘zgartirish kiritishimiz kerak. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchidan so‘zni o‘qigan va yozganidan so‘ng talqin qilishni so‘rashi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi matnni normal tezlikda o‘qiydi va ko‘p kishilik guruhlardagi o‘quvchilar uni to‘liq yozishga harakat qilishadi. Bunda o‘quvchilarning o‘zi ishlaydi.

Tahmin qilish – Biror bir mashg‘ulotda o‘rgatgan so‘zingizni tanlang va til o‘rganuvchilaringizdan tahmin qilishni so‘rang. O‘yinni boshlashdan oldin ularga ozgina rahbarlik qilishingiz mumkin. So‘zni to‘g‘ri taxmin qilgan o‘quvchi keyingi so‘zni tanlashi va sinfdoshlaridan taxmin qilishni so‘rashi kerak. Darsda 10-15 ta so‘z bo‘lguncha ushbu o‘yinni davom ettiring. Talabalar bunda leksikaning strukturasiga diqqat qaratishlari lozim.

To‘g‘ri tuzish – bu faoliyat ta’lim oluvchini morfalogiya va grammatika bilan aniq jalb qiladigan mashg‘ulotlar kontekstdan tashqari mashqlarning yana bir turi hisoblanadi. So‘z bilan bog‘liq aniq jarayonlarda masalan, so‘z qurilishi va sintaksisdan o‘quvchilarni til o‘zlashtirganliklarini yaxshiroq bilib olish mumkin. Har bir talab o‘rtacha 1-7 tagacha gap yoki so‘z birikmasi tuzishi mumkin.

Bingo - Sinf darajasiga qarab, rasmlarni doskaga joylashtiring. Boshlang‘ich sinflarda 15 tagacha bo‘lishi mumkin. O‘quvchilaringizdan 5 ta rasmni tanlang va ularning ismlarini daftariga yozib qo‘ying. Keyin, ularning ostiga rasmlarning nomlarini yozing. Agar ba’zi bir til o‘rganuvchilar so‘zni yozgan bo‘lsalar, so‘zning yozilishi to‘g‘ri bo‘lsa, ularga ball berasiz. Birinchi so‘zni beshta so‘zni to‘g‘ri yozgan kishi mukofotga ega bo‘ladi.

Kontekstga bog‘liq faoliyat. Ko‘proq vaqtini talab qiladigan mashg‘ulotlar o‘rniga, matnni qayta ishlashga xos bo‘lgan ishlardan foydalanish ham mumkin. Siz shu tarzda o‘quvchilarni kontekstdagi ishtiroki bilan tanishishlari mumkin. Ushbu faoliyatlardan ba’zilari quyidagilar:

Tinglash. Darsda audiomatlarni tinglash o‘quvchilarni yangi so‘zlar bilan tanishtirishdan tashqari, ularni qanday qilib kontekstda ishlatishni ham o‘rgatadi. Sinfda she’rlar, qisqa matnlar, yangiliklar va shunga o‘xhash narsalarni o‘qishning afzalligi shundaki, matn o‘qiyotganda kesilmay va pauza qilinmasdan o‘quvchilar qulog‘iga etib boradi.

Birgalikda topish. Lug‘at yoki internet kabi manbalar bilan oldingi bilimlaridan foydalangan holda, til o‘rganuvchilaringizdan foydalanayotgan so‘zlariga o‘xhash so‘zlarni yoki iboralarni taqdim etishlarini so‘rang. Buning uchun talabalarga texnik jihatdan imkoniyat yaratib berish kerak.

Jumla tuzish. Tilni o‘rganuvchilar boshlang‘ich davrdan boshlab ushbu turdagи faoliyat bilan shug‘ullantirish mumkin. Ushbu mashg‘ulotni biroz samarali qilish uchun, ulardan jumla tuzish uchun ikkita ahamiyatsiz so‘zdan foydalanishni yoki

xabarlari noto‘g‘ri bo‘lgan jumlalarni tuzishni so‘rash yaxshi. Shuningdek, jumla qurish faoliyatini jozibali va tilga qulay qilish uchun shaxsiylashtirishdan foydalanishingiz mumkin.

Ijodiy faoliyat. O‘quvchilaringizni guruhlang va avvalgi darslarda o‘rgangan har qanday so‘zlaridan foydalanib hikoya, ertak yoki kichik bir voqeilik tuzishini va sinfda barcha bilan baham ko‘rishni so‘rang. Shuningdek, siz ulardan sinfda o‘qilgan matnli so‘zlardan foydalangan holda matn tarkibini aytib berishni so‘rashingiz mumkin.

Ijodiy yondashuv sinfda mashq qilishning yana muhim usulidir. Ijodiy yozish faoliyatida o‘quvchilar boshqa har qanday faoliyatga qaraganda so‘zlar bilan chuqurroq bog‘lanib, to‘g‘ri so‘zlarni tanlashga harakat qilishadi. Qisqa she’rlar, epik matnlar va maqolalar yozish ijodiy yozishning namunasidir. Shuningdek, o‘quvchilarni ushbu turdagи mashg‘ulotlarni sinfdan tashqarida qilishni rag‘batlantirish mumkin, bu holda ularga to‘g‘ri so‘zlarni tanlash uchun ko‘proq imkoniyatlar mavjud. Ularni rag‘batlantirish uchun ishlanmalarini biron bir joyda nashr etish yo‘llarini o‘ylab ko‘ring.

Tarjima. Tarjimadan foydalanish ko‘pgina o‘quv darsliklarda uzoq vaqtдан beri foydalanilmaydi. Biroq, til o‘rganuvchilarni eng muhim muammolaridan biri tarjimonlik masalasini hisobga olsak, tarjimaning ahamiyati yana bir bor ko‘rib chiqildi. Lug‘atlar va boshqa manbalardan foydalangan holda siz o‘quvchilardan ona tilidan qisqa matnni o‘rganilayotgan tiliga tarjima qilishni va ekvivalentlarni tanlashning to‘g‘riligini muhokama qilishni so‘rashingiz mumkin.

Motivatsiya o‘quv faoliyatining samaradorligini va talabalarning u’zlashtirishni belgilab beradi. Davr talablariga javob beruvchi psixolog va pedagoglar faoliyati sifati va natijasi avvalo individning ehtiyojlari va xohish-istiklari, motivatsiyasiga bog‘liq va aynan motivatsiya aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni keltirib chiqarib, u maqsadga erishish uchun usullarni aniqlashga undaydi, degan fikrdalar.

Odatda xorijiy tillarni o‘rganishdan oldin talabalarda o‘sha tilga nisbatan katta qiziqish va boshlang‘ich bosqichda motivatsiya bo‘ladi. Ular xorijiy tilda fikrlarini izhor qilish, tengdoshlar bilan o‘sha tilda suhbat qurish va o‘sha tilda gaplashuvchi odamlar, mamlakat va madaniyat haqida o‘rganishni xohlaydilar bu esa og‘zaki nutqni rivojlanishiga kata turki bo‘ladi. Lekin xorij tilini o‘rganish boshlanganida ko‘pgina talabalarda qiyinchiliklar hosil bo‘ladi. Bu va boshqa omillar tufayli talabalarning qiziqishi pasayadi. Tabiiyki, qiziqish pasayganda tilni o‘zlashtirish darajasi, ta’lim sifati tushib ketadi. Ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun motivatsiyaning roli kattadir¹.

¹ Айходжаева Г.А. Роль мотивации в изучении иностранного языка // “Тиллар ўқитиши назарияси ва амалиёти: янгича изланишлар” илмий-услубий анжуман материаллари. –Т., 2000. –С.9.

Motivatsiya qilingan talabalar, odatda, darsda faol qatnashadigan, fanga qiziqishlarini izhor qiladigan va bilimlarni yaxshi egallaydigan talabalardir¹.

Lekin unutmasligimiz kerakki, talabalarning motivatsiyasida o‘qituvchi muhim o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi o‘rganilayotgan til mamlakati va tarixi haqida qiziqarli ma’lumotlar, o‘sha tildagi adabiyot namunalaridan dars jarayonida keltirsa, zamонавиy pedagogik vositalar va interfaol usullar orqali mavzularni tushuntirsa, audio va video fayllar bilan darsini boyitsa, talaba darsda faol qatnashishi tabiiydir. Bundan tashqari, motivatsiya talabalarni, guruhni olqishlashda, rag‘batlantirishda ham ko‘rinadi.

“Bobomning bog‘i” matnini o‘tish jarayonida interfaol usullar, qiziqarli materiallar, grafik organayzerlardan foydalandim. Shuningdek, talabalarning har bir javobini olqishlashga, ularni rag‘batlantirishga va dars jarayonida ijodiy-ishchan muhitni yaratishga harakat qildim. Noto‘g‘ri berilgan javoblarni ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri xato ekanini aytmasdan, balki turli misol va izohlar, guruhdoshlarining fikrmulohazalari orqali tushuntirishga harakat qildim. Natijada guruhdagi har bir talaba dars jarayonida faol bo‘lishga, o‘z fikrlarini aytishdan uyalmaslikka va mavzu yuzasidan turli-tuman savollar bilan murojaat qilishga intildilar. Oxir-oqibat talabalarda erkin fikrlash ko‘nikmasi hosil bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси биринчи президентининг 10.12.2012 йилдаги “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сон Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси биринчи президентининг 12.06.2015 йилдаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.04.2017 йилдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон Қарори.

4. Айходжаева Г.А. Роль мотивации в изучении иностранного языка // “Тиллар ўқитиши назарияси ва амалиёти: янгича изланишлар” илмий-услубий анжуман материаллари. –Т., 2000

5. Lightbown P.M., Spada N. How language are learned. –UK: Oxford University Press, 2017.

¹ Lightbown P.M., Spada N. How language are learned. –UK: Oxford University Press, 2017. –P.88.